



“TASDIQLAYMAN”
“Namangan Elite Homes”
MChJ direktori


S. Babajanov

«28» may 2025-yil

Namangan viloyati Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu mahallasi, Yangi O‘zbekiston massivida ko‘p qavatli turar-joy binolari qurilishi uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

1.	Obyektning nomi	Ko‘p qavatli turar-joy binosi
2.	Buyurtmachi	“Namangan Elite Homes” MChJ
3.	Moliyalashtirish manbai	O‘z mablag‘i
4.	Loyiha tashkiloti	Eng yaxshi takliflarni tanlash orqali aniqlanadi
5.	Obyektning joylashgan hududi	Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu mahallasi, Yangi O‘zbekiston massivi
6.	Qurilish turi	Yangi qurilish
7.	Obyektning murakkablik darajasi	IV-toifa (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-avgustdagi 496-sonli qarori, 2-ilovasi, 14.5-bandi)
8.	Bosh pudratchi	Eng yaxshi takliflarni tanlash orqali aniqlanadi
9.	Xizmatlarni ko‘rsatish joyiga qo‘yiladigan talab	Ishtirokchi tomonidan ishlarning bajarilishi buyurtmachi manzili (Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi 282-uy) va obyektning haqiqiy joylashgan joyi (Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu mahallasi) bo‘yicha amalga oshiriladi
10.	Ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish muddati	Xizmatlarni ko‘rsatish muddati shartnoma imzolangan kundan boshlab «90» kalendar kuni.
11.	Tanlash doirasida amalga oshiriladigan ishlar sifatiga qo‘yiladigan talablar.	Ishtirokchi ishlarni bajarishda tegishli sifatni ta‘minlaydi. Ishning sifati ushbu texnik topshiriq talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Qabul qilingan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun Ishtirokchi amaldagi qonunchilikka muvofiq moddiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.
12.	Faoliyat yuritayotganiga kamida 3 yil to‘lgan bo‘lishi lozim. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma (Asosiy faoliyat turi – qurilish).	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi 275-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi
13.	Tanlov predmeti bo‘yicha ish tajribasi	Talab etilayotgan yoki shunga o‘xshash xizmatni amalga oshirish tajribasi haqida ma‘lumot
14.	Pudrat tashkiloti elektron reytinga egaligi: (https://reyting.mc.uz)	Ishtirokchi pudrat tashkilotlari elektron reytingida yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishi lozim.



15.	Moliyalashtirish tartibi	Oldindan to'lov-50%, qolgan 50%i topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.
16.	Ishtirokchining moliyaviy holati	Ishtirokchining to'lov qobiliyatiga layoqatli bo'lishi, muddatida to'lanmagan to'lov hujjatlari hisobi yuritiladigan balansdan tashqari hisobvaraq (Kartoteka-2)da va banklar oldida kredit qarzdorliklari bo'lmasligi talab qilinadi.